

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarini Qo'llanishining Yuridik Shaxslarning Mol-Mulk Solig'Iga Ta'siri Masalalari

Nao'Betova Ziyada Niyet Qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq qonunchiligi va MHXSni integratsiyalashuv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ko'rib chiqilgan va bu muammolarning yuridik shaxslarning mol-mulk solig'iga ta'sirini o'rganish va soliq qonunchiligini xalqaro standartlarga moslash bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan. Mavzu yuzasidan xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: soliq qonunchiligi, MHXS integratsiyalashuv, xorij tajribasi, mol-mulk solig'i, xalqaro standartlar, taqqoslash tahlili.

Kirish

Bugungi kunda, jahon iqtisodiyotining globalashuvi, kapitalning yuqori migratsiyasi va raqamlashtirilgan texnologiyalarning rivoji biznes chegaralarini taboro kengaytirmoqda va bu esa, o'z navbatida barcha davlatlarga teng ravishda chet el investitsiyasini jalb qilishga va bu orqali soliq tushumlarini oshirishga yordam bermoqda. Barchamizga ma'lumki, soliq tushumlarining oshishi budjet daromadlarining oshishiga va buning natijasida mamlakat iqtisodiyotining, ayniqsa ijtimoiy sohalarning rivojlanishiga, aholining yashash tarzini yaxshilanishiga olib keladi. Shuning uchun ham davlatimizning investitsiyaviy salohiyatini oshirish va kapitalni jalb etishga bo'lgan raqobatda yetakchilikni qo'lga olishga bo'lgan ehtiyoj, potensial investorlar uchun maqbul biznes sharoitini yaratib berishni talab qilmoqdadir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilgan har bir mamlakat, albatta, jahon bozorida raqobatni yutishi formati eldan ko'proq investor jalb qilishning ko'proq imkoniyatiga ega.² MHXS ni qo'llash nafaqat moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida qarorlarni qabul qilishda balkim soliq siyosatining alternativ vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Soliq solish maqsadida MHXS ga o'tish soliq daromadlariga sezilarli ravishda ta'sir etishi mumkin.³

Bundan tashqari, dissertatsiya mavzuimizning aktuallik darajasini muhtaram prezidentimizning 24.02.2020 yilgi PQ-4611 sonli qarorlari oshirib bermoqdalar. Qarorga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil yakunidan boshlab o'z hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) asosida tayyorlashi va Davlat soliq qo'mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda 2020 yil 1 oktabrga qadar MHXS moslashtirilgan soliq hisoboti shaklini ishlab chiqishi lozimligi ta'kidlangan⁴.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Soliq qonunchiligi va MHXS integratsiyalashuvining oqibatlari haqida turli xil olimlarning o'z fikrlari mavjud. Tadqiqotchi Nevius fikriga ko'ra "Moliyaviy hisobotlarni bittasidan boshqa hisobot berish standartiga o'tkazish oddiy buxgalteriya hisobidan tashqari oqibatlarga olib keladi, soliq hisobotlari

¹ International School Of Finance And Technology Instituti Buxgalteriya Hisobi Kafedrasida O'qituvchisi

² Candy GloriaFebriana PuspitasariMuthiya Gabriela Malawat "THE IMPLEMENTATION OF IFRS ADOPTED ON TAX IN ASIA STUDY" / <https://core.ac.uk/outputs/143964137>.

³ Procházka, D.: The IFRS as Tax Base: Potential Impact on a Small Open Economy/

https://www.researchgate.net/publication/298428091_The_IFRS_as_Tax_Base_Potential_Impact_on_a_Small_Open_Economy

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.



bo'yicha mutaxassislar uchun ham buxgalteriya hisobini to'g'ri ta'minlash uchun eski moliyaviy hisobot usuli va IFRS hisobot usuli o'rtasidagi farqlarni tushunish muhim hisoblanadi"⁵.

Tadqiqotchi Abadonning so'zlariga ko'ra, IFRSga o'tish bosh kompaniyaning chet eldagi sho'ba korxonalaridagi hisob-kitoblariga va naqd pulni qaytarish rejalariga ta'sir qiladi. Ushbu oqibatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish IFRSga o'tishdan oldin va keyin soliq natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi kerak. Shunday qilib, global standartlarning o'zgarishi kompaniyalarning ma'lum yurisdiksiyalardagi soliqlarni rejalashtirish harakatlariga ta'sir qilishi mumkin va IFRSni qabul qilish moliyaviy hisobotning tuzilishi va mazmunini o'zgartiradi"⁶.

Ba'zi olimlar MHXSni turli davlatlarning buxgalteriya hisobiga kiritilishining ijobiy soliq oqibatlarini ko'rib chiqishgan bo'lsa, ba'zi olimlar negativ jarayonlar kuzatilganligini ham ta'kidlab o'tishgan. Masalan tadqiqotchilar Samuel va Obimaka fikrlariga ko'ra "IFRSni qabul qilishning soliq hisobiga ta'sirini aniqlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy savol nazariy nuqtai nazardan, tranzaksiyaga asoslangan yondashuvdan qiymatga asoslangan yondashuvga o'tish kerakmi yoki yo'qligi hisoblanadi. Darhaqiqat, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini soliq bazasi sifatida ishlatish tarafdorlari ham, muxoliflari ham bor. IFRS asosida soliq bazasini shakllantirish foydasiga ba'zi dalillar shuni ko'rsatadiki bu kompaniyaning soliq bazasini "haqiqiy iqtisodiy daromad"ga yaqinlashtiradi. Qiymatga asoslangan yondashuvga o'tishga qarshi dalillar shundan iboratki, adolatli qiymat hisobi sub'ektivdir va soliq maqsadlarida nazorat qilish oson emas. Bundan tashqari, IFRSni amalga oshirish kompaniyaning amalga oshirilmagan daromadlariga soliq solinadigan vaziyatga olib keladi va bu kompaniyalarning likvidligiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, IFRS standartlari murakkab va talqin qilish va tushunish qiyin, standartlarning murakkabligi va yetarli darajada tushunilmaganligi sababli ko'proq sub'ektiv hukmlar kompaniyalar uchun soliq nizolari xavfini oshiradi"⁷.

Xususan MHXS ni amaliyotga tatbiq etish orqali nafaqat ijobiy balkim salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan holatlar mavjudligini ham aytib o'tmoqchimiz. Iqtisodchi R.N Braga fikriga ko'ra "MHXSni qabul qilish boshqa omillar tufayli kompaniyalarning soliq to'lashdan bo'yin tovlash darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. 1999 yildan 2014 yilgacha bo'lgan 35 mamlakatdan 9,389-15,423 ta ochiq savdoga qo'yilgan kompaniyalar namunasiidan foydalanib, biz MHXSga o'tish korporatsiyalar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning yuqori darajalari bilan bog'liqligini aniqladik. Bundan tashqari, natijalar shuni ko'rsatadiki, MHXSni qabul qilingandan so'ng, soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilish sharoitida bo'lgan firmalar soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasi past bo'lgan firmalarga qaraganda soliq to'lashdan bo'yin tovlash ehtimoli ko'proq. Asosiy xulosa shundan iboratki, MHXSni majburiy ravishda amalga kiritilgandan so'ng, kompaniyalar soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlay boshladi"⁸.

Yuqoridagi olimlarimizning fikrlarini inobatga olgan holda shunday xulosa qilishimiz mumkinki, MHXS ni turli davlatlarga joriy etishda turli hil soliq oqibatlarini keltirib chiqargan. Shubha yo'qki, MHXS asosida hisob yuritish iqtisodiyotimizni chet el investitsiyalariga jozibadorligini oshiradi, tadbirkorlarimizning ilmiy salohiyatini oshishiga, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishiga, valyuta tushumi oshishiga imkoniyat yaratib beradi. Bu esa o'z navbatida, soliq tushumlarining ortishiga, soliq to'lovchilardan sifatli hisobotlar olish imkoniyatini, korxonalarining real holatini tahlil qila olish orqali aniqlik darajasi yuqori bo'lgan soliq prognozlarini bajarishga yordam beradi. Ammo, yangi hisobot turiga o'tish davrida, kadrlar tanqisligi tufayli milliy standartlar va xalqaro standartlar asosida ham paralel hisobot tuzish ehtiyoji, soliq bazasini aniqlashdagi chalkashliklar, korxonalar uchun qo'shimcha xarajatlarni tug'dirishi aniqdir. Fikrimizcha, MHXS asosida yuritilgan hisobda yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, amortizatsiya xarajatlariga ta'siri soliq bazalarida biroz o'zgarishlarni

⁵ Nevius, Alistair. "How Will IFRS Affect Tax Practitioners?" Journal of Accountancy (2008): n. pag. Web

⁶ Abedana, Virgil. "IFRS / IAS Adoption and Its Tax Challenges and Management." The International Journal of Business Management 4.5 (2016): n. pag. Web.

⁷ Samuel Fakile, Faboyede Samuel, and Nwobu Obiamaka. "The Impact of International Financial Reporting Standards on Taxation." International Journal of Business & Social Science 4.10 (2013): 169-74. Web.

⁸ R.N Braga "Effects of IFRS adoption on tax avoidance"/

https://www.researchgate.net/publication/321429957_Effects_of_IFRS_adoption_on_tax_avoidance



keltirib chiqaradi. Bundan tashqari konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhini soliqqa tortish amaliyoti O'zbekistonda endi amalga oshirilmoqda, shuninh uchun bunday guruhlarni soliqqa tortishning xalqaro tajribasini o'rganish soliq qonunchiligini yanada mukammalashtirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot empirik ma'lumotlarni to'plash o'rniga mavjud adabiyotlar, tushunchalar va nazariyalarni sintez qilishga qaratilgan nazariy tezis uchun ma'lumotlarni yig'ish usullari empirik tadqiqotlarda qo'llaniladiganlardan farq qildi. Tadqiqot ishida asosan turli manbalardan ikkilamchi ma'lumotlarni to'plashga e'tibor qaratiladi. Nazariy tezis uchun mos bo'lgan ba'zi ma'lumotlarni yig'ish usullari:

Adabiyot sharhi:

Tadqiqot mavzusi bilan bog'liq tegishli tadqiqotlar, maqolalar, kitoblar va boshqa ilmiy manbalarni aniqlash uchun keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqdik.

Bilimlarning hozirgi holatini, nazariy asoslarni va sohadagi asosiy bahslarni tushunish uchun mavjud adabiyotlarni sintez qildik.

Hujjatlarni tahlil qilish:

Tadqiqot mavzusiga tegishli ilmiy ishlar, qonun hujjatlari, xalqaro standartlar va arxiv materiallari kabi hujjatlarni to'pladik va tahlil qildik.

Turli xil nazariyalarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilganligi, sinovdan o'tganligi yoki tanqid qilinganligini tekshirdik.

Qiyosiy tahlil:

Tadqiqot sohasidagi turli xil nazariy istiqbollar, yondashuvlarning qiyosiy tahlilini o'tkazdik. O'xshashliklar, farqlar va yaqinlashish sohalarini aniqlash uchun nazariyalar, modellar yoki kontseptual asoslarni solishtirdik va taqqoslashga harakat qildik.

Tahlil va natijalar

MHXS asosida tuzilgan hisobotlarning soliqqa tortishga ta'sirini o'rganayotgan paytimizda ushbu standartlarning yuridik shaxslarning mol-mulk solig'iga to'g'ridan to'g'ri ta'siri mavjudligini ko'rdik va dissertatsiyamizning ushbu qismida ushbu bog'liqlikni tahlil qilishga harakat qildik.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini 411 moddasiga ko'ra Ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq solish obyektini hisoblanadi.

Kodeksga ko'ra ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlar;
2. Qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;
3. temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;
4. Qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyektini foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.

Soliq kodeksining 412 moddasiga ko'ra esa ushbu soliq bo'yicha soliq bazasi quyidagilar deb topilgan:



1. Bino va inshoatlar, temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari bo'yicha o'rtacha yillik qiymati.
2. Qurilishi tugallanmagan obyektlar uchun- tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati;
3. Qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari uchun mazkur obyektlarning o'rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).

Bundan tashqari mol-mulk solig'iga bog'liq spesifik qoidalar ham mavjud:

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ushbu Kodeks 411-moddasi ikkinchi qismining [1-bandida](#) nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lishi mumkin emas:

- Toshkent shahrida — uch million so'm;
- Nukus shahrida va viloyat markazlarida — ikki million so'm;
- boshqa shaharlarda va qishloq joylarda — bir million ikki yuz ming so'm;

Agar obyektning 1 kv. metri qiymati ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lsa, soliq to'lovchi ko'chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirishga haqli. Bunda mustaqil baholash natijalari, shu jumladan soliq to'lovchi tomonidan o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida e'tirof etiladi.

MHXSni joriy qilish soliq to'lovchilarning mol-mulk solig'i bazasiga juda katta ta'sir qiladi. Xususan, BHXS 16 ning 29 bandiga ko'ra korxonalar o'z asosiy vositalarini balansga qabul qilayotganida 2 ta usuldan biri dastlabki qiymat yoki qayta baholash qiymati usullaridan birini tanlashi va buni o'z hisob siyosatida aks ettirishi lozim. Agar korxonada dastlabki qiymat usulini tanlasa asosiy vositalar aktiv sifatida tan olingandan so'ng, u to'plangan amortizatsiya summalarini va qadrsizlanishlarni olib tashlagan holda dastlabki qiymati bo'yicha hisobga olinishi kerak. Agar korxonada qayta baholash qiymati usulidan foydalanadigan bo'lsa u aktivni doimiy ravishda haqqoniy qiymati asosida qayta baholab hisobini yuritishni talab qiladi. Fikrimizcha agar korxonalar ikkinchi usulni tanlashsa bu mol-mulk solig'i bo'yicha soliq bazasini oshiradi deb taxmin qila olamiz, chunki bizga ma'lumki hozirgi kunda ko'chmas mulk obyektlari qiymati yildan-yilga oshib bormoqda va ularni haqqoniy qiymatiga tenglashtirish mol-mulk solig'ini oshiradi degan taxminimiz bor. Bundan tashqari, BHXS 16 ning 16 bandiga ko'ra asosiy vositalarning tarkibiga asosiy vositalar ob'ektini demontaj qilish va olib tashlash va u egallab turgan uchastkani tiklash xarajatlarini dastlabki taxminiy baholash qiymati ham kiritilishi lozim. Hali sodir bo'lmagan ammo kelajakda kutilayotgan bu xarajatlarning dastlabki qiymatga qo'shilishi mol-mulk solig'ini oshiradi degan fikrdamiz.

BHXS 16ning 43-44 bandlariga ko'ra asosiy vositalar tarkibi kompleks komponentlardan iborat bo'lsa, har bir komponent bo'laklarga ajratib alohida eskirish hisoblanishi lozim. Masalan korxonada balansida samalyot mavjud bo'lsa, samalyot fyuzelyaji va dvigatellarini alohida-alohida amortizatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'lishi ko'rsatilgan. Bu esa o'z navbatida amortizatsiya xarajatlarini foyda solig'ini solish maqsadida ham ijobiy ham salbiy tomonga o'zgarishga olib kelishi mumkin.

BHXS 16 58-bandiga ko'ra yer uchastkalari va binolar alohida aktivlar bo'lib, birgalikda sotib olingan taqdirda ham alohida qayd etiladi. Ba'zi istisnolardan tashqari, masalan, karerlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun foydalaniladigan uchastkalar, er uchastkalari cheksiz foydalanish muddatiga ega va shuning uchun amortizatsiya qilinmaydi. Binolar foydalanish muddati cheklangan va shuning uchun amortizatsiya qilinadigan aktivlardir. Bino joylashgan er uchastkasining narxining oshishi ushbu binoning amortizatsiya qilinadigan qiymatini aniqlashga ta'sir qilmaydi.

Demak 58 bandga ko'ra, korxonada bino-inshoat sotib olsa xarid qilingan obyekt qiymati bino va yerdan foydalanish huquqi uchun alohida ajratilishi kerak. Quyidagi misolimizda bu qoidaning soliq to'lovchining soliq bazasiga ta'sirini ko'rib chiqamiz:



Misol. “*www.olx.uz*” sayti ma’lumotidan foydalangan holda Toshkent shahri, Mirzo-ulug’bek tumanidagi 3 qavatli ofis uchun mo’ljallangan, 550 kv.m. noturar joy qiymatini hozirgi kunda 416 000\$⁹ ekanligini guvohi bo’ldik. 17.05.2024 yil O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank valyuta sotuv kursi 12 720\$ ni tashkil qilgan. Ushbu kurs orqali bino qiymatini milliy valyutaga o’tkazganimizda 5 291 520 ming so’mni tashkil qildi. 1-jadvalda bino va yer qiymatini ajratishga harakat qildik.

1-jadval Obyekt tarkibidagi bino va yer qiymatini ajratish

| Obyektning umumiy qiymati, ming so’mda | Yer maydoni, sotix | O’rtacha yer narxi, sotix uchun ming so’mda | Yer qiymati, ming so’mda | Bino qiymati, ming so’mda |
|--|--------------------|---|--------------------------|---------------------------|
| 5 291 520 | 1.84 | 364 000 | 669 760 | 4 621 760 |

Manbaa: Jadval muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

Hozirgi kundagi Toshkent shahridagi o’rtacha yer narxi 2024 yil 1 chorak uchun 1 sotix 364 000 ming so’m¹⁰ deb belgilangan. Demak, bino 3 qavatli va umumiy maydoni 550 kvm bo’lsa, binoning yer maydoni shuni 1/3 qismi, ya’ni 184 kvm ni tashkil qiladi deb faraz qildik. Yuqoridagi jadvalimizdan ko’rinib turibdiki, obyekt tarkibidagi yer qiymati 669 760 ming so’mni tashkil qilmoqda. Demak obyekt qiymatidan yerga tegishli qiymatni olib tashlasak binomizning yersiz sof qiymati 4 621 760 ming so’mni tashkil qilishini ko’rdik.

Keyingi jadvalda ushbu bino qiymatidan eskirish hisoblashga harakat qildik.

2-jadval BHXS-16 ga ko’ra bino qiymatini yerdan ajratgan holda eskirish hisoblash (ming so’mda)

| Oylar soni | Boshlang’ich qiymati | Hisoblangan eskirish (5%) | Balans qiymati |
|------------|----------------------|---------------------------|----------------|
| 1 | 4 621 760,00 | 19 257,30 | 4 602 502,70 |
| 2 | 4 602 502,70 | 19 257,30 | 4 583 245,40 |
| 3 | 4 583 245,40 | 19 257,30 | 4 563 988,10 |
| 4 | 4 563 988,10 | 19 257,30 | 4 544 730,80 |
| 5 | 4 544 730,80 | 19 257,30 | 4 525 473,50 |
| 6 | 4 525 473,50 | 19 257,30 | 4 506 216,20 |
| 7 | 4 506 216,20 | 19 257,30 | 4 486 958,90 |
| 8 | 4 486 958,90 | 19 257,30 | 4 467 701,60 |
| 9 | 4 467 701,60 | 19 257,30 | 4 448 444,30 |
| 10 | 4 448 444,30 | 19 257,30 | 4 429 187,00 |
| 11 | 4 429 187,00 | 19 257,30 | 4 409 929,70 |
| 12 | 4 409 929,70 | 19 257,30 | 4 390 672,40 |

Manbaa: Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

SK 306 moddasiga ko’ra bino uchun eskirish normasi 5% deb belgilangan. Binoga to’g’ri chiziqli eskirish usulidan foydalanildi va 12 oy davomida oyiga 19 257,30 ming so’m eskirish xarajati sifatida aks ettirildi. Jami 1 yillik eskirish summasi 231 088 ming so’mni tashkil qildi va bu xarajatlar foyda solig’i bazasidan chegiriladigan xarajat sifatida kamaytiriladi.

⁹<https://www.olx.uz/d/obyavlenie/prodaetsya-nezhiloe-zdanie-m-ulugbek-temura-malika-or-r-ekobazar-r-ID3xzlq.html>

¹⁰ <https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/13/real-estate-market/>



3-jadval BHXS-16 ga ko'ra yerdan ajratilgan holda bino uchun mol-mulk solig'ini hisoblash (ming so'mda)

| | |
|-------------------------------|--------------------------------|
| O'rtacha qoldiq qiymat | 53 959 050,60 /12=4 496 587.55 |
| Mol-mulk solig'i 1.5% | 67 448.9 |

Manbaa: Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

2-jadval ma'lumotlaridan foydalanilgan holda, 3-jadval ko'rsatkichlari hisoblandi. SK 413 moddasiga ko'ra ko'chmas mulk obyektining o'rtacha qoldiq qiymati mol-mulk solig'ini hisoblash uchun baza bo'ladi. Ushbu obyektning o'rtacha qoldiq qiymati 4 496 587.55 ming so'm deb topildi va hisoblangan mol-mulk solig'i ming 67 448.9 so'mni tashkil qildi.

4-jadval Yer uchun yuridik shaxslarning yer solig'ini hisoblash (ming so'mda)

| Yer maydoni (gektar) | Zona | 1 gektar uchun norma | Hisoblangan soliq |
|-----------------------------|-------------|-----------------------------|--------------------------|
| 0.0184 | 3 | 167 000 | 3 072.8 |

Manbaa: Jadval muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, yer uchun hisoblangan yer solig'i 3 072,8 ming so'mni tashkil etmoqda.

Agar, korxonada milliy standartlar asosida binoni butun qiymatida asosiy vosita tarkibiga qabul qilsa, obyekt uchun hisoblanadigan eskirish xarajatlarini quyidagi jadvalda ko'rib chiqdik.

5-jadval Bino qiymatini yerdan ajratmagan holda eskirish hisoblash (ming so'mda)

| Oylar soni | Boshlang'ich qiymati | Hisoblangan eskirish (5%) | Balans qiymati |
|-------------------|-----------------------------|----------------------------------|-----------------------|
| 1 | 5 291 520,00 | 22 048,00 | 5 269 472,00 |
| 2 | 5 269 472,00 | 22 048,00 | 5 247 424,00 |
| 3 | 5 247 424,00 | 22 048,00 | 5 225 376,00 |
| 4 | 5 225 376,00 | 22 048,00 | 5 203 328,00 |
| 5 | 5 203 328,00 | 22 048,00 | 5 181 280,00 |
| 6 | 5 181 280,00 | 22 048,00 | 5 159 232,00 |
| 7 | 5 159 232,00 | 22 048,00 | 5 137 184,00 |
| 8 | 5 137 184,00 | 22 048,00 | 5 115 136,00 |
| 9 | 5 115 136,00 | 22 048,00 | 5 093 088,00 |
| 10 | 5 093 088,00 | 22 048,00 | 5 071 040,00 |
| 11 | 5 071 040,00 | 22 048,00 | 5 048 992,00 |
| 12 | 5 048 992,00 | 22 048,00 | 5 026 944,00 |

Manbaa: Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

Binoga to'g'ri chiziqli eskirish usulidan foydalanildi va 12 oy davomida oyiga 22 048,00 ming so'm eskirish xarajati sifatida aks ettirildi. Jami 1 yillik eskirish summasi 264 576 ming so'mni tashkil qildi va bu xarajatlar foyda solig'i bazasidan chegiriladigan xarajat sifatida kamaytiriladi.

6-jadval Yerdan ajratilmagan holda bino uchun mol-mulk solig'ini hisoblash (ming so'mda)

| | |
|-------------------------------|-----------------------------|
| O'rtacha qoldiq qiymat | 61 778 496,00 /12=5 148 208 |
| Mol-mulk solig'i 1.5% | 77 223.12 |

Manbaa: Jadval muallif tomonidan mustaqil tuzilgan



5-jadval ma'lumotlaridan foydalanilgan holda, 6-jadval ko'rsatkichlari hisoblandi. SK 413 moddasiga ko'ra ko'chmas mulk obyektining o'rtacha qoldiq qiymati mol-mulk solig'ini hisoblash uchun baza bo'ladi. Ushbu obyektning o'rtacha qoldiq qiymati 5 148 208 ming so'm deb topildi va hisoblangan mol-mulk solig'i 77 223.12 ming so'mni tashkil qildi.

Ushbu ikkala holat yuzasidan natijalarni quyidagi jadvalda taqqoslab tahlil qilishga harakat qildik

7-jadval Xalqaro standartlar va milliy standart asosida buxgalteriya hisobining soliq uchun ta'siri (ming so'mda)

| Tadqiqot obyekti | Xalqaro standartga ko'ra | Milliy standartga ko'ra |
|--------------------------------------|--------------------------|-------------------------|
| Yillik amortizatsiya xarajati | (231 088) | (264 576) |
| Mol-mulk solig'i | 67 448.9 | 77 223.12 |
| Yer solig'i | 3 072.8 | 3 072.8 |
| Soliq uchun sof natija | (160 566.3) | (184 280.08) |

Manbaa: Jadval muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilish orqali shunaqa xulosaga kelishimiz mumkinki, xalqaro standartlarning joriy qilinishi garchi mo-mulk solig'i qiymatini kamayishiga olib kelsa ham, shu bilan birga amortizatsiya xarajatlarining ham kamayishiga olib keladi. Buning natijasida mol-mulk solig'i bazasi kamaygani bilan, foyda soligi bazasi oshadi va umumiy ma'noda soliq tushumlarini oshiradi degan fikrga keldik.

Xulosa va taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ko'chmas-mulk obyektlarini va boshqa kompleks aktivlarni sotib olayotganda, BHXS-16 ga ko'ra aktiv qismlarini bir biridan ajratish yuzasidan ma'lum ko'rsatmalarni o'z ichiga oluvchi qoidalar to'plamini yaratish. Fikrimizcha soliq organlari tomonidan yaratiladigan maxsus ko'rsatmalar korxonalariga ushbu kompleks aktivlarni o'z balansiga olayotganda qo'shimcha baholovchilar xizmati uchun xarajat qilmasdan mustaqil ko'rsatma asosida bo'lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr – T.:2019 y.
3. Candy GloriaFebriana PuspitasariMuthiya Gabriela Malawat "THE IMPLEMENTATION OF IFRS ADOPTED ON TAX IN ASIA STUDY"/ URL:<https://core.ac.uk/outputs/143964137>
4. Procházka, D.: The IFRS as Tax Base: Potential Impact on a Small Open Economy https://www.researchgate.net/298428091_The_IFRS_as_Tax_Base_Potential_Impact_on_a_Small_Open_Economy
5. Samuel Fakile, Faboyede Samuel, and Nwobu Obiamaka. "The Impact of International Financial Reporting Standards on Taxation." International Journal of Business & Social Science 4.10 (2013): 169-74. Web.
6. A.L.Martinez "Are IFRS Standards a Good Starting Point for a Corporate Tax Base?Tax Principles for a CCCTB" /URL:https://www.researchgate.net/publication/334401439_Why_is_IFRS_Not_a_Good_Starting_Point_for_a_Tax_Base
7. S.Chakroun, A.B Amar "The IFRS adoption, corporate tax avoidance and the moderating effect of family ownership"/URL:https://www.researchgate.net/publication/378871045_The_IFRS_adoption_corporate_tax_avoidance_and_the_moderating_effect_of_family_ownership#:~:text=Using%20panel%20data%20of%20137,decrease%20in%20income%20tax%20revenue.



8. R.N Braga “Effects of IFRS adoption on tax avoidance”/
URL:https://www.researchgate.net/publication/321429957_Effects_of_IFRS_adoption_on_tax_avoidance
9. To‘rayev A.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o‘quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya, 2020.
10. <https://www.olx.uz/d/obyavlenie/prodaetsya-nezhiloe-zdanie-m-ulugbek-temura-malika-or-r-ekobazar-r-ID3xzlq.html>
11. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/13/real-estate-market/>

